

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/2025.27.12.GM.02.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**
“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM

SATTAROV JOVXAR BURXONOVICH

**SHIMOLIY NUROTANING YARIK-SULUQ VA JILG‘A
MAYDONLARIDAGI OLTIN MA’DANLASHUVNING GEOLOGIYASI,
JOYLASHISH SHAROITLARI VA MINERALOGIK-GEOKIMYOVİY
XUSUSİYATLARI**

**04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va
razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sattarov Jovxar Burxonovich

Shimoliy Nurotaning Yarik-Suluq va Jilg‘a maydonlaridagi oltin ma’danlashuvining geologiyasi, joylashish sharoitlari va mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari 3

Саттаров Жовхар Бурхонович

Геология, условия размещения и минералого-геохимические особенности золотого оруденения Ярык-Сулукской и Джилгинской площади Северного Нуратау.....21

Sattarov Jovkhar Burkhanovich

Geology, Placement Conditions, and Mineralogical-Geochemical Features of Gold Ore Mineralization in the Yaryk-Suluk and Djilgin Areas of Northern Nuratau.....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works44

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/2025.27.12.GM.02.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM

SATTAROV JOVXAR BURXONOVICH

**SHIMOLIY NUROTANING YARIK-SULUQ VA JILG‘A
MAYDONLARIDAGI OLTIN MA’DANLASHUVINING GEOLOGIYASI,
JOYLASHISH SHAROITLARI VA MINERALOGIK-GEOKIMYOVİY
XUSUSIYATLARI**

**04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va
razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/GM281 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi “Mineral resurslar instituti” davlat muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mridm.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turapov Mirali Kamalovich

geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karabayev Mamatxon Sadirovich

geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Kasimova Shaxzoda Ramizidinovna

geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi “Mineral resurslar instituti” DM huzuridagi DSc.31/2025.27.12.GM.02.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “12” 02 soat 16 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100064, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64. Tel. (99871) 209-08-93; e-mail: info@mridm.uz, gpniiimr@exat.uz).

Dissertatsiya bilan “Mineral resurslar instituti” DMning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (3484 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100064, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi 64-uy. Tel: (99871) 209-08-93).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “29” 01 kuni tarqatildi.
(2025-yil “18” 12 dagi 30 raqamli reestr bayonnomasi)..



M.U. Isoqov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d.

O‘A.Xafizov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.f.d. (PhD)

M.M. Pirnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi g.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy geologiya rivojida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mineral-xomashyolar – qimmatbaho, rangli va nodir metallar mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosini tashkil etadi. So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida mineral-xomashyoga bo‘lgan talabning doimiy o‘sishi kuzatilmoqda, shuningdek, iste’mol qilinadigan xom ashyolar nomlari ham sezilarli darajada kengaygan. Shu bilan birga, yer yuziga yaqin joylashgan va oson qazib olinadigan konlarning katta qismi allaqachon aniqlangan va ulardan ko‘plari o‘zlashtirilgan. Mineral resurslarga bo‘lgan talabning doimiy o‘sishi tufayli ma’lum va o‘zlashtirilayotgan konlarning qanotlarida va chuqur qatlamlarida zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda jadal geologiya-qidiruv ishlarini olib borish zarurati tug‘ilgan.

Hozirgi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlarida mineral-xomashyo bazasini kengaytirish, bashoratlash va qidiruv muammolarini hal qilishda ma’lum ma’danli hududlar va maydonlarda revizion-bashorat-metallogenik tadqiqotlar muhim rol o‘ynaydi. Xususan, Rossiya va Xitoyda metallogenik tahlillar asosida ma’danli obyektlarning qanotlari va chuqur qatlamlarida bashoratlash va qidiruv ishlari olib borilmoqda. Bu ilmiy yondashuv ma’lum hamda o‘zlashtirilayotgan konlar atrofidagi istiqbolli maydonlarni kengaytirish va qidiruv ishlarini samarali olib borish imkonini beradi. Shu sababli, tog‘-kon hududlarida mineral-xomashyo bazasini kengaytirish masalasini hal qilish maqsadida muayyan ma’danli obyektlarning qanotlarini va istiqbolli maydonlarni revizion-bashorat-metallogenik usullar asosida o‘rganish dolzarb muammo hisoblanadi.

Respublikada so‘nggi yillarda oltin ma’danli konlarning shakllanish sharoitlari, joylashuvi, mineralogik-geokimiyoviy xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha borasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishilgan. Xususan, Shimoliy Nurotaning shimoliq‘arbiy qismida 110 ta oltin namoyonlari aniqlangan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “....iqtisodiyot uchun zarur mineral xom ashyo bazasini kengaytirish.....”¹ vazifalari belgilab berilgan. Bularning barchasi Shimoliy Nurota tizmasi g‘arbiy hududida yangi oltin ma’danli namoyonlarni aniqlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va bashorat ishlarini olib borishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonida, 2021-yil 21-apreldagi “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalgan etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral xomashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5083-sonli, 2022-yil 3-avgustdagi “Mahalliy mineral xomashyo resurslari asosida yuqori texnologik metallar ishlab chiqarishni tashkillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-343-sonli, 2025-yil 28-martdagi “2025-2026-yillarda sanoat uchun muhim minerallar xomashyosi bazasini kengaytirish va ishlab chiqarishni jadallashtirishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 60-son Farmoni.

PQ-128-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'naliшlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ryespublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning VII-“Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishslash)” ustuvor yo'naliшlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot maydoni Shimoliy Nurota tizmasining shimoli-g‘arbiy qismida (Shimoliy-Suvliqsoy, Konsoy, Yarik va Jilg‘a maydonlari) joylashgan bo‘lib, oltin minerallashuvi bilan boyligi tufayli uzoq vaqt dan buyon geologlar e’tiborini tortib kelmoqda. XX asr boshlaridan bu hududda geologiya va endogen ma’danlarning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish hamda sanoat ahamiyatiga ega ma’danli obyektlarni aniqlash maqsadida bir qator tadqiqotchilar tomonidan kompleks geologik, geofizik, mineralogik va geokimyoviy tadqiqotlar amalga oshirilgan, jumladan: X.M.Abdullayev, N.A.Smirnov, L.I.Lukin, V.S.Myasnikov, R.R.Usmanov, V.P.Fedorchuk, I.B.Turamuratov, F.K.Divayev, R.S.Xan, V.D.Soy, M.M.Pirnazarov, J.J.Movlanov va boshqalar.

Ushbu tadqiqotlar natijasida mintaqaning geologik va strukturaviy-tektonik tuzilishi, magmatizm xususiyatlari hamda oltin konlarining mineralogik va geokimyoviy tarkibi aniqlangan. Bu tadqiqotlar asosan regional xarakterga ega. Bizning tadqiqotlarimiz esa Shimoliy Nurota tizmasining shimoli-g‘arbiy qismidagi Yarik-Suluq va Jilg‘a maydonlarida oltin ma’dani minerallashuvini o‘rganishga qaratilgan.

Ma’lumki, yer yuzasiga yaqin konlar zahiralari cheklanganligi sababli, yangi sanoat ahamiyatiga ega yashirin konlarni aniqlash va istiqbolli strukturalarni kompleks geologik hamda analitik usullar asosida tadqiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi va Yaponianing neft, gaz va metallar milliy korporatsiyasi “JOGMEG” o‘rtasida 2019-yil 16-dekabrda imzolangan shartnomaga asosan, “Navoiy viloyatidagi Yarik-Suluq va Chettik maydonlarida qo‘shma geologik tadqiqotlar olib borish” (2020 - 2022) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Shimoliy Nurotaning Yarik-Suluq va Jilg‘a maydonlaridagi oltin ma’danlashuvining geologiyasi, joylashish sharoitlari va mineralogik-geokimyoviy xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Shimoliy Nurotaning g‘arbiy qismining geologiyasi, tektonikasi, metallogeniyasi, hamda oltin ma’danlashuvining shakllanish va joylashish qonuniyatlarini bo‘yicha geologik materiallarni to‘plash va ilmiy jihatdan tahlil qilish;

oltin ma’danlashuvi namoyonlari shakllanishining geologik-strukturaviy va mineralogik xususiyatlarini aniqlash;

ma’dan qamrovchi jinslar va oltin ma’danlashuvining geokimyoviy xususiyatlarini o‘rganish;

oltin ma'danlashuvini bashorat qilish va qidirish mezonlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Shimoliy Nurotaning Yarik-Suluq va Jilg'a maydonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti geologik hosilalar, darzliklar, minerallar, kimyoviy elementlar va oltin ma'danlashuv minerallashuvining geokimyoviy oreollari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda endogen ma'danlashuv joylashuv sharoitlarini geologik-strukturaviy tahlil qilish, asosiy ma'dan nazorat qiluvchi omillarni aniqlash; oltin ma'danlashuvining mineralogik va geokimyoviy usullar asosida o'rganilishi, ma'danlarning mineral kompleksi va geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash; mahalliy bashoratlash usullari; geologik ma'lumotlarni matematik-statistik usullar bilan qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yarik-Suluq va Jilg'a maydonlaridagi oltin ma'dan namoyonlarining joylashuvida Konsoy-Suvliqsoy va Qamishli ko'p yoriqli tektonik buzilmalar zonalari ma'danni nazorat qiluvchi omil sifatida ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan;

Konsoy-Suvliqsoy zonasida oltin ma'danlarining geologik-strukturaviy joylashuv sharoitlari asosan shimoli-g'arbiy yo'nalishdagi uzilmali buzilmalar bilan bog'liqligi aniqlangan;

Suvliqsoy svitasi jinslarida yuqori miqdordagi elementlarning (Au, Ag, As, Cu, Mo, Sb, Ni, Pb, Zn, W va boshqalar) mavjudligi, oltin ma'danlar hosil bo'lishida asosiy litologik omil sifatida belgilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yarik-Suluq va Jilg'a maydonlarida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ma'dan tarkibida oltin bilan birga mis, qo'rg'oshin, rux, kobalt, nikel, volfram va vismut kabi elementlar aniqlanib, ular mineral hosil qiluvchi (Au, Ag, As, Cu, Mo, Sb, Ni, Pb, Zn, W va boshqalar) va aralashma (Ni, Se, Cd, Sb) sifatida uchraydigan elementlar deb ikki guruhga ajratildi.

Tadqiqotlar jarayonida oltin ma'danlarining morfologik turlari ham aniqlanib, ular asosan tomirsimon va qatlamsimon (ba'zi joylarda linzasimon) tuzilishlarga ega ekanligi qayd etildi;

Yarik-Suluq va Jilg'a maydonlari uchun strukturaviy, mineralogik va geokimyoviy bashorat mezonlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi S.C.ALS Romania va ALS Loughrea/OMAC tomonidan sertifikatlangan laboratoriya tahlillari (2763 ta kern namunalari va bo'sh fraksiyalardan 476 ta litokimyoviy namunalar ICP-MS tahlillari (ME-MS61) va atom absorbsiya spektrometriyasi (FA-AAS) tahlil natijalariga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Shimoliy Nurota tog'larining g'arbiy qismida asosiy ma'danli elementlar (Au, Ag, As, Cu, Mo, Sb, Ni, Pb, Zn, W va boshqalar) keng tarqalganligi aniqlangan bo'lib, ushbu elementlarning oreollari oval shakliga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, oltin ma'danlashuvining genetik hosil bo'lishi va sanoatda

o‘zlashtirishiga ko‘ra tasniflanganligi Yarik-Suluq va Jilg‘a maydonlarida kelgusida geologiya- qidiruv ishlarini olib borish va sanoat usulida o‘zlashtirish imkoniyatlarini ilmiy ko‘rsatib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Shimoliy Nurotaning g‘arbiy hududi oltin ma’danlarini bashoratlash-izlash, baholash, aniq istiqbolli maydonlarni qidirish-razvedka ishlarini istiqboldagi sanoatda o‘zlashtirish va investitsiyalar kiritish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shimoliy Nurotaning Yarik-Suluq va Jilg‘a maydonlaridagi oltin ma’danlashuvining geologiyasi, joylashish sharoitlari va mineralogik-geokimyoviy xususiyatlarini o‘rganish orqali olingan ilmiy natijalar asosida:

Shimoliy Nurotaning Yarik-Suluq va Jilg‘a maydonlaridagi oltin ma’danlashuvining geologiyasi, joylashish sharoitlari va mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari bo‘yicha xulosalar “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyatiga joriy qilingan (Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 24-oktyabrdagi 08-3881-sonli ma’lumotnomasi). Natijada maydonlardagi oltin ma’danlarini hosil bo‘lishi hamda ularning joylashish qonuniyatlarini aniqlash imkonini bergen;

Yarik-Suluq va Jilg‘a maydonlaridagi oltin bilan birga uchraydigan yo‘ldosh elementlar (Au, Ag, As, Cu, Mo, Sb, Ni, Pb, Zn, W va boshqalar) aniqlanganligi “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyatiga joriy qilingan (Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 24-oktyabrdagi 08-3881-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu elementlarga istiqbolli minerallashgan zonalar aniqlangan;

Shimoliy Nurota tog‘ining shimoliy-g‘arbiy qismidagi Yarik-Suluq va Jilg‘a maydonlaridagi Suvliqsoy, Yarik va Konsoy minerallashgan zonalarida aniqlangan oltinga istiqbolli namoyonlar “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyatiga joriy qilingan (Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 24-oktyabrdagi 08-3881-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar istiqbolda respublika mineral-xomashyo bazasini kengaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 4 ta maqola, shu jumladan respublika nashrlarida 3 ta maqola va xorijiy jurnallarda 1 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 123 bet, 30 ta rasm va 21 ta jadvalni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, ishning ahamiyati, maqsad va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqot obyektlari va predmeti, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining amaliyatga tatbiq etilishi va qo‘llanilishi, ilmiy tadqiqot doirasida nashr qilingan ishlar va disseratsyaning umumiy tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan

Dissertatsiyaning “**Shimoliy Nurota tizmasining shimoliy-g‘arbiy qismini o‘rganish tarixi va geologiyasi**” deb nomlangan birinchi bobida Shimoliy Nurota tizmasi hududining o‘rganilish tarixi va geologik tuzilishiga oid ma’lumotlar o‘z aksini topgan.

Shimoliy Nurota tizmasida nodir metallarning keng tarqalganligi qadim zamonlardan beri konchilarni e’tiborini jalgan bo‘lsada, XX asr boshlarida regional va geologik-tasvirlash ishlari olib borilganidan so‘ng geologlar qiziqishini uyg‘ota boshlagan. 1934-1937-yillarda N.A.Baskin va V.S.Myasnikov kabi olimlar Kattich, Temirkabuk, Akchob, Ustuk sochma oltin konlarini aniqlashgan. 1975-yilda esa geologik-tasvirlash ishlari natijasida Sh.Sh.Sabdyushev va boshqalar Jadir, Yarik, Qizilkesak, Konsoy, Qoraquduk kabi oltin uchun istiqbolli maydonlarni ajratishgan.

Mustaqillikning ilk yillarda V.B.Joltkevich va boshqalar qidiruv ishlari natijasida Drevniy, Kulkuduq, Pistali oltin namoyonlari, shuningdek, Madavat oltin ma’danli zonasini aniqladilar. 2004-yildan boshlab R.S.Xan va boshqalar tomonidan mezozoydan oldingi yotqiziqlarni geologik qayta o‘rganish (1:50 000 miqqosda) shuningdek, qidiruv ishlarini olib borganlar. Olib borilgan ishlar jarayonida ilgari ajratilgan istiqbolli uchastkalar doirasida 2,5 dan 88,8 g/t gacha bo‘lgan miqdordagi oltinning ko‘plab namoyonlari aniqlandi.

Dissertatsiya ishida R.S.Xanning Shimoliy Nurota tog‘laridagi Yarik va Suluq uchastkalarida oltin izlash ishlari uchun tuzilgan geologik xaritasidagi stratigrafik bo‘linish sxemasidan foydalanilgan (1-rasm). Unga ko‘ra, *Proterozoy erasi Uchmoli svitasi – PR₁*? Uč kristalli slaneslar, meta-tuflar, meta-bazaltlar va ular orasida yakka qatlamlar bo‘lib joylashgan ohaktoshlar kvarsitlar va dolomit tog‘ jinslaridan tashkil topgan.

Suvliqsov svitasi – R₃sv. M.A.Axmedjanov va boshqalar tomonidan “Suvliqsov svitasi” deb nomlangan bu qatlamlar kvarsitlar, slaneslar, dolomitlar va ohaktoshlarning almashinuvchi qatlamlarini o‘z ichiga oladi. Uning yuqori qismida massiv kremniyli, ohaktoshli va dolomitlarning gorizontlari aniqlangan.


Kembriy tizimi o‘rta-yuqori bo‘limlari Keskens svitasi – $C_{2-3}ks$ slaneslar, alevrolitlar, polimiktli qumtoshlar, ohaktoshlar va kremniyli slaneslardan tashkil topgan.

Ordovik tizimi quyisi bo‘limi Terrarsov – O_{1tr} va *Konsoy svitalarining* slaneslar, ko‘k-yashil kremniyli kvarsit va dolomit jinslari, polimiktli alevrolitlar va qumtosh qatlamlarini o‘z ichiga oladi.

Silur tizimi, quyisi va yuqori bo‘limlarning Sarikeriz – $S_{1-2}sr$, Yatak – $S_{1-2}jat$ va Mazor – S_{2mz} svitalaridan tashkil topgan bo‘lib, ular qora ko‘mirli-kremniyli slaneslar, yupqa qatlamlar qora kremniy qatlamlari, qatlamsimon kam marmarlashgan gilli ohaktoshlar, dolomitlar va massiv ohaktoshlar bilan ifodalanadi.

Devon tizimi quyisi bo‘limi Tulebay – D_{1tl} , Kulandjailau - D_{1kl} , Kichar – $D_{1kč}$ va Urusquduq – D_{1ur} svitalarining bazalt, gravelit, qumtoshlar, massiv dolomitlar, dolomitlashgan ohaktoshlar, organogen ohaktoshlar va organogen-bo‘lakli ohaktoshlardan tashkil topgan. O‘rta bo‘limi Tyulkin – D_{2tl} , Shirgalan va Korumbay svitalleri – D_{2kr} ohaktoshlar, kulrang kristalli ohaktoshlar va qisman dolomitlardan

tashkil topgan. Yuqori bo‘limi esa Yernazar svitasining – D_3 er ohaktoshlaridan tashkil topgan.



1-rasm. Yarik-Suluq va Jilg'a maydonlarining geologik xaritasi. (Xan R.S. va boshqalarning materiallari asosida tuzilgan, 2010). 1) Lyossimon qumoq, shag'al, qum, toshli qatlamlar. 2) O'rtacha donali biotitli adamellitlar va granodioritlar. 3) Yirik donali biotitli adamellitlar va granodioritlar. 4) Plitali ohaktoshlar va dolomitlar. Amfiporalar. 5) Mayda va o'rta donali biotit va shoxaldamchili gabbro-dioritlar va dioritlar. 6) Slyudali slaneslar, metaalevrolitlar, metaqumtoshlar, kvarsit, dolomit va ohaktosh qatlamlari bilan. 7) Kvarsitlar, dolomitlar, ohaktoshlar, slaneslar. 8) Qumtoshlar, alevrolitlar, slaneslar, gravelit qatlamlari bilan. 9) Slyudali, albit-slyudali slaneslar, qumtosh qatlamlari alevrolitlar. 10) Oltin ma'dan zonalarning chegaralari. 11) Uzilmalar: a) ishochchli; b) taxminiy. 12) Maydon konturlari: 1 – Yarik uchastkasi, 2 – Suluq uchastkasi, 3 – Jilg'a maydoni.

Toshko 'mir tizimi yuqori bo‘limi Besragatin – C_{1bs} va Chambil svitalaridan tashkil topgan bo‘lib, ular asosan yupqa qatlamlı ohaktoshlar bilan boshlanadi, yuqorida afanitli ohaktoshlar va dolomit qatlamlari, organogen-detritli ohaktoshlar bilan ifodalangan. O'rta bo‘limi Kelvasoy – S_{2kl} , Qoytosh – S_{2kt} va Mixin – S_{2mh} svitalarining organogen ohaktoshlari, kvars-kremniyli gravelitlar va qumtoshlar, yuqorida esa organogen ohaktoshlar, qumli ohaktoshlar, gilli slaneslar, ohakli alevrolitlar, argillitlar, slaneslar va qumtoshlar bilan ifodalangan

Tektonik rayonlashtirishda (A.K.Buxarin va boshqalar, 1983; P.A.Muxin, R.X.Mirkamalov) Zarafshon-Turkiston strukturaviy-formatsion zonasida (SFZ) Tomditov-Nurota, Qoytosh-Zomin, Nurota-Lyatoband, Oqtov-Molguzar kabi strukturaviy-moddiy komplekslar (SMK) ajratilgan. Tadqiqot hududida faqat Tomditov-Nurota kompleksining formatsiyalari tarqalgan bo‘lib, ikkita strukturaviy kaledon va gersin qavatlari ajratilgan.

Kaledon strukturaviy qavati haqidagi tavsif P.A.Muxin, Yu.S.Savchuk va R.X.Mirkamalovlarning tadqiqotlari asosida keltirilgan. Ularning fikriga ko‘ra, kaledon strukturaviy bosqichi quyi va yuqori qoplamlardan tashkil topgan bo‘lib, ular

o‘rtasida yotqizilgan yuzalar mavjud. Bu yuzalar ostida, ba’zi joylarda tortishli burmalar va terrigen melanj (turli xil jinslar aralashmasi) saqlanib qolgan.

Gersin strukturaviy qavatida terrigen (flish-olistostrom) va karbonat formatsiyalari ajratilgan. Terrigen formatsiyasi (S_2m) mixin svitasining flishoid shakllanishlari bilan ifodalangan.

Gersin davri uzilmali buzilmalar guruhiga Jadir, Qamishlik, Shirg‘ali, Qoraqduq, Kepaksulton, Tandir va Tomdi tektonik uzilishlari kiradi. Ular kenglik, yarim kenglik va shimoli-sharqiy yo‘nalishlarga tomon yo‘nalgan.

Tadqiqot olib borilgan hududda magmatizm plutonik shakllanishlar bilan ifodalangan bo‘lib, ular Madovat, Temirkabuk intruzivlari, Mullakamol va Konsoy daykalari, Pystalisoy, Konsoy va boshqa shtoklarni tashkil qiladi. “Qo‘llanma sharhlar...” (V.S.Korsakov, F.K.Divayev, R.R.Usmonov, K.K.Pyatkov, M.T.Xan)ga ko‘ra, tadqiqot hududini o‘z ichiga olgan Samarqand tog‘-kon hududi uchun quyidagilar xosdir: 1) Kattaich o‘rta-kech karbon davriga oid gabbro-diorit-granodiorit kompleksi. 2) Shurak granitoid kompleksi: a) Shurakning o‘ziga xos kech karbon davriga oid adamellit-granodiorit subkompleksi; b) Gatchin kech karbon-erta perm davriga oid ikki slyudali va muskovitli granitlarning subkompleksi. 3) Shimoliy Nurota perm davriga oid dayka kompleksi. 4) Janubiy Tyanshan trias davriga oid subshelochli gabbroidlar kompleksi. 5) Chalata karbonatitlari.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Jilg‘a va Yarik-Suluq maydonlarining geologiyasi va oltin ma’dani minerallashuvining joylashuvi”** deb nomlangan. Unda tadqiqot maydonlarining geologik tuzilishi va oltin ma’danlari tarkibidagi minerallar hosil bo‘lish ketma-ketliklari o‘rganilib oltin ma’danlarining turlari, tarqalishi va mahsuldor assotsiatsiyalari ajratilgan, hamda ma’dan qamrovchi jinslarning mineralogik-petrografik tavsifi keltirilgan bo‘lib, ularni ta’riflashda oldingi tadqiqotchilarning (Yu.S.Savchuk, A.V.Pokrovskiy P.A.Muxin, V.P.Xoxlov, M.A.Axmedjanov, V.D.Soy v.b) hisoboti va ishlari bilan qiyosiy tahlil qilingan.


Jilg‘a maydoni geologik jihatdan massiv, yoriqli gabbro-dioritlar; biotit-shoxaldamchi tarkibli dioritlar; kattaich kompleksining lamprofir daykalari; biotitli adamellitlar; granodioritlar va aplitoid granit daykalari; shurok kompleksining pegmatoidlari intruziv shakllanishlarining keng tarqalishi bilan ajralib turadi (2-rasm).

Intruziv hosilalar faqat kesuvchi va subkenglik yo‘nalishidagi daykalar shaklida uchraydi, ular Shimoliy Nurota kompleksining lamprofirlari va diabaz porfirtlariga mos keladi. Jilg‘a maydonining asosiy burmalangan strukturalari Ulus-Madavat antiklinali va Jilg‘a antiklinalidir. Turli yo‘nalishdagi burmalarning kesishish joylarida oltin ma’dani minerallashuvi kuzatiladi. Bu omil shuni ko‘rsatadiki, turli yo‘nalishdagi burmalarning kesishish joylari oltin ma’danlarini topilish ehtimoli eng yuqori bo‘lgan strukturaviy pozitsiya deb hisoblash mumkin.

Mineralogik tadqiqotlar natijalari, ko‘plab shlif va anshliflarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, uglerodli modda oltin va sulfidli minerallashish bilan singenetic tarzda hosil bo‘lgan.

Bunda tog‘ jinslarini hosil qiluvchi minerallar va uglerodli moddaning oltin bilan ingichka qatlamlar hosil qilib, burmalanishlarning qanotlari va o‘q tekisliklarida joylashganligi dalil bo‘ladi. Burmalanish jarayonlari bilan bir vaqtida ko‘plab bo‘ylama

tektonik buzilishlar shakllandi, ular kataklazlashgan va milonitlashgan tog‘ jinslarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu esa gidrotermal eritmalar va magmatik jinslarning faol kirib borishiga imkon yaratdi. T.N.Dalimov, Yu.S.Savchuk, P.A.Muxin, R.X.Mirkamalov, I.N.G‘aniyev, D.Ishbayev va boshqalarning fikricha, bu jarayonlar Paleoturkiston okeani va Qozog‘iston mikrokontinentlari tutashgan joyda kuzatilgan subduksiya faolligining boshlanishi bilan bog‘liq.



2-rasm. Jilg‘a maydonining geologik xaritasi. (Xolmatov R.A. materiallari asosida tuzilgan 2020y.)

Tadqiqot olib borilgan maydonda ikkita asosiy metamorfizm turi – regional va kontakt metamorfizmlari kuzatilgan. I.M.Mirxodjayev, V.P.Xoxlov, M.A.Axmedjanov, A.V.Pokrovskiy va boshqa tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, regional metamorfizm asosan yashil slanes va epidot-amfibolit fatsiyalarining tog‘ jinslarini hosil qilishi bilan namoyon bo‘lgan.

Kontakt metamorfizmi esa, Temirkabuk granitoid intruzivining kontakt zonasida aniqlangan bo‘lib, u yerda slyudali, slyudali-kvarsli slaneslar rivojlangan. Turli tarkibli metasomatitlarda 19 tagacha mineral aniqlangan bo‘lib, ma’danli minerallardan pirit, galenit, sfalerit, xalkopirit minerallari tashkil qiladi. Spektral tahlil natijalariga ko‘ra, mingdan va o‘ndan bir foizgacha bo‘lgan miqdorda 17 ta kimyoziy element aniqlangan. Ba’zan margumush (0,04-0,1%), qo‘rg‘oshin (0,015-0,1%) va rux (0,015-0,2%) miqdori biroz yuqori bo‘lganligi qayd etilgan. Oltin miqdori esa 0,03-0,08 g/t ni tashkil qiladi.


Gidrotermal jarayon bosqichi tektonik buzilishlar zonasida joylashgan yirik kvars tomirlarining hosil bo‘lishi bilan namoyon bo‘lgan. Kvars tomir tizimlarining shakllanish bosqichi tugagach, oltin-kvars-oltin-piritli minerallanishning birinchi

bosqichi boshlangan, bu bosqichda metall miqdori nisbatan past bo‘lgan. Gidrotermal-metasomatik faollik, kalsit-kvarsli, kvars-kalsitli va kalsitli uyalar, linzalar va linzasimon tomirlarning hosil bo‘lishi bilan yakunlangan.

Jilg‘a maydonining ma’danliligi va geologik joylashuvi R.S.Xan va boshqalar tomonidan Konsoy-Suvliqsoy va Qamishli ko‘p qirrali tektonik zonalari bilan belgilanadi.

Ikkala zona ham ko‘plab lamprofir, diabaz va diabaz porfirit daykalari, milonit va kataklazit zonalari bilan belgilanadi. Tektonik zonalar bir qator fleksura egilishlarini hosil qiladi, ular ko‘pincha ko‘ndalang uzilishlar bilan bog‘liq. Oltin minerallashuvi zonalar bo‘ylab notejis taqsimlangan bo‘lib, asosan bo‘ylama yoriqlar tizimiga to‘g‘ri keladi. Oltinning yuqori miqdori (0,8-3,4 g/t) kvarslashgan, o‘zgargan jinslar va kvars tomirlarida qayd etilgan. Minerallashuvning bunday taqsimlanishi va oltinning ikkilamchi litokimyoviy oreollari Konsoy-Suvliqsoy va Qamishli tektonik uzilishlarining ma’danni nazorat qiluvchi rolini ta’kidlaydi.

Yarik-Suluq maydonida ikkita ma’danli Suluq va Yarik uchastkalari ajratilgan. Suluq uchastkasi Shimoliy Nurota tizmasining shimoliy yon bag‘rida joylashgan (3-rasm).



3-rasm. Suluq uchastkasining geologik xaritasi. (R.S.Xan, U.K.Xalboyev materiallari bo‘yicha, 2010) 1) Lyossimon qumoqli gillar, shag‘allar, qumlar, toshli qotishmalar. 2) Plitasimon ohaktoshlar, dolomitlar. Amfibolitlar. 3) Slyudali slaneslar, metaalevrolitlar, metaqumtoshlar kvarsit, dolomit va ohaktoshlarning linzasimon qatlamlari bilan. 4) Kvarsitlar, dolomitlar, ohaktoshlar, slaneslar. 5) Dolomit, kvarsit, ohaktosh va slyudali slaneslarning qatlamlari bilan amfibolli slaneslari. 6) Mayda va o‘rtta donali biotit-shoxaldamchili gabbro-dioritlar va dioritlar. 7) a) Kvarsitlar, b) Dolomitlar. 8) a) Tektonik uzimali buzilmalari. b) Maydalangan va milonitlangan jinslar zonasi. I. Shimoliy, II. Markaziy, III. Janubiy. 9) Lamprofir daykalari. 10) Ma’dan tanasi. 11) Kvars tomirlari. 12) Turli generatsiyadagi mayda burmalar sharnirlarining yotishi. 13) Elementlarning yotish burchagi. a) qatlamlili b) klivajli. Burg‘i quduqlari: 14) kalonkali. 15) kartografik. 16) Suluq uchastkasining chegarasi. 17) Qidiruv chiziqlari. 18) Balandlik nishoni. 19) Aholi punktlari.

Yarik uchastkasi (4-rasm) Shimoliy Nurota tizmasining suvayirg'ich qismida, Suluq uchastkasidan janubda joylashgan. Yarik-Suluq maydonining geologik tuzilishida yuqori proterozoyning cho'kindi-metamorfik kompleksi (uchmoli, suvliqsoy svitalari) va quyi paleozoy (Konsoy svitasi) jinslari ishtirok etadi.

Yarik uchastkasida yuqori Konsoy yotqiziqlari rivojlangan bo'lib, ular turli xil burmalar bilan murakkab dislokatsiyalangan va subsharqiy yo'nalishdagi tektonik buzilishlar bilan murakkablashgan. Suluq uchastkasida mayda va o'rta donali gabbro-dioritlar va biotit-shoxaldamchili dioritlar, shuningdek, ularga hamroh bo'lgan Kattich kompleksining lamprofir daykalari kuzatiladi. Shurak kompleksining biotitli adamellitlari, granodioritlari va ularga hamroh bo'lgan aplitoid granitlar, pegmatoidlar ham mavjud. Suluq uchastkasining lamprofir daykalari kvarsli kersantitlardan tashkil topgan. Ular Suvliqsoy mineralallashgan zonasining shimoliy qismida (5-6 km gacha cho'zilgan) dayka kamari shaklida joylashgan. Ular oltin mineralallashuvini o'z ichiga olmaydi. Asosiy plikativ strukturalar – Ulus-Madavat va Jilg'a antiklinallari bo'lib, ular ko'plab izoklinal burmalar va shimoli-g'arbiy yo'nalishdagi yuqori tartibli burmalar bilan murakkablashgan.



4-rasm. Yarik uchastkasining geologik xaritasi. (R.S.Xan, U.K.Xolboyev materiallari bo'yicha 2010) 1) Slyudali slaneslar, albit-slyudali slaneslar, qumtoshli qatlamlar bilan alevrolitlar. 2) Lamprofir daykalari. 3) Gravelitlar. 4) Ma'dan tanalari. 5) Shnekli burg'ilash profili. 6) Kanavalar. 7) Antiklinal burmalari. 8) Qatlamlarning yotish elementlari. 9) a) Tektonik buzilishlar, b) Maydalanish zonasi. 10) Yarik uchastkasi. 11) Shosse yo'llari.

Litogeokimyoviy tasvirlash ma'lumotlariga ko'ra, maydon oltin bilan nisbatan yuqori zaryadlanganligi bilan ajralib turadi. Umumi yuqori zaryadlanganlik va ko'plab oreollarga qaramay, ular ichida oltin konsentratsiyasi yuqori emas (0,003 dan 0,009 g/t gacha).

Ajratilgan oltin va margumushning rangli anomali litokimyoviy intervallari shimoli-g'arbiy yo'nalishdagi uzilmali buzilmalari bilan fazoviy jihatdan yaxshi bog'langan bo'lib, ularning genetik bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu bog'liqlik strukturaviy omil sifatida anomali intervallarni bog'lash uchun mezon sifatida foydalanish imkonini beradi.

Oltinning eng kontrastli anomaliyasi Suvliqsoy mineralallashgan zonasining shimoliy qismida hamda Qamishli mineralallashgan zonasining shimoli-g'arbiy qismida

kuzatiladi. Bu hududlarda 1, 2, 2^a, 3, 3^a, 4, 4^a, 5, 6, 7, 7^a, 8, 9, 9^a va 10-raqamli ma'dan tanalari aniqlangan.

Oltin minerallashuvi, tog' jinslari va ma'danlarning mineral va moddiy tarkibi. Yarik-Suluq maydonining strukturaviy joylashuvi Konsoy- Suvliqsoy va Qamishli tektonik zonalariga bog'liqligi bilan belgilanadi. Konsoy-Suvliqsoy zonasida minerallashuv shimoli-g'arbiy yo'nalishdagi tektonik uzilishlar bilan nazorat qilinadi. Qamishli zonasida esa minerallashuv bo'ylama va o'zaro kesishgan kuchli tektonik uzilishlar bilan nazorat qilinadi. Ushbu zonalarning tektonik buzilishlari bir qator fleksura egilishlarini hosil qiladi, ular ko'pincha ko'ndalang uzilishlar bilan murakkablashgan. Alovida uzilishlarning qalinligi 10 metrdan 150 metrgacha, minerallashgan zonaning umumiy kengligi 3,5 km ga yetadi. O'rganilgan mineralogik-geokimyoviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oltin minerallashuvi zonalar bo'ylab notekis taqsimlangan bo'lib, bo'ylama burmalanish strukturalari tizimiga to'g'ri keladi. Tog' jinslarida oltin miqdori uzilmalar yaqinida 0,2-0,7 g/t ni tashkil qiladi. Kvarsplashgan, o'zgargan jinslar va kvars tomirlarida oltin miqdori 0,8-56,4 g/t gacha yetadi. Suluq uchastkasida 15 ta ma'dan tanasi va uchta minerallashgan zona aniqlangan. 1-sonli ma'dan tanasi uchastkaning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, Konsoy- Suvliqsoy tektonik uzilishining shimoliy zonasiga bog'liq. Ma'dan tanalari bo'yamasiga 410 m gacha o'rganilgan bo'lib, unda oltin miqdori 0,2 dan 40,1 g/t gacha o'zgarib turadi.

Yarik uchastkasida geologik-qidiruv ishlari natijasida uchta 1, 2 va 2a ma'dan tanalari aniqlangan. 1-sonli ma'dan tanasi Qamishli yorig'ining g'arbiy qismida joylashgan. Ma'dan tanasini tashkil etuvchi jinslar intensiv kataklazlangan, milonitlangan, kvarslangan va kuchli temir bilan to'yingan qumtoshlar, alevrolitlar, slaneslar va ko'plab kvars tomirlaridan iborat bo'lib, ular sof tug'ma oltin va sulfidlarni o'z ichiga oladi. Ma'dan tomir va tomirchalar turiga mansub. 1-sonli ma'dan tanasi bir necha joylarda qisqarib, yuzada 0,8-1,5 m qalinlikka ega bo'lib, kengaygan joylarda 3,0 m gacha yetadi. Unda oltin miqdori 0,8 g/t dan 15,0 g/t gacha o'zgaradi. Ma'dan tanasining o'rtacha qalinligi 1,2 m, o'rtacha oltin miqdori 4,8 g/t ni tashkil qiladi va u 2100 m gacha cho'zilgan.

Suluq uchastkasi ma'danlarining tabiiy turlari. Ma'danlarning tabiiy turlari – bu muayyan kimyoviy va mineral tarkibga ega bo'lган litologik tog' jinslari bo'lib, ular bir yoki bir nechta mahsuldor mineral assotsiatsiyalarni va foydali komponentlarning sanoat ahamiyatiga ega miqdorlarini o'z ichiga oladi (V.D.Soy, I.V.Koroleva, 2007).

Birinchi guruh ma'danlarning tabiiy turiga (MTT) terrigen jinslar (psammitslar, alevrolitlar, psammo-alevrolitlar, alevro-psammitslar) bilan bog'liq ma'dan tanalari kiradi. Ikkinci guruh MTTga kristalli biotit-amfibolli slaneslarda joylashgan ma'dan tanalari kiradi. Uchinchi guruh MTTga oksidlangan sulfidlar, o'zgargan bo'laklari jinslar, dala shpatlari to'plamlari va sof oltin bilan kvars tomirlari kiradi. Barcha guruhlar uchun umumiy xususiyat bu, sof oltinning mavjudligidir (3-jadval).

Suluq uchastkasi ma'danlarining mineral tarkibi bizning tadqiqotlarimiz va oldingi ishlar natijalariga ko'ra, Suluq uchastkasining ma'danlarida qirqqa yaqin minerallar mavjudligini ko'rsatadi.

3-jadval

Suluq uchastkasi ma'danlarining tabiiy turlarini kimyoviy tarkibi
(R.S.Xan va boshqalar ma'lumotlari asosida, 2010y.)

Ma'danni tabiiy turi	Namuna nomeri	Miqdori, %															
		SiO ₂	Fe ₂ O ₃	FeO	TiO ₂	MnO	Al ₂ O ₃	MgO	Na ₂ O	K ₂ O	P ₂ O ₅	CO ₂	CO ₃	N ₂ O	Sum.	nnn	Jami
I	Cy-5	68,7	4,0	0,86	0,86	0,03	14,3	1,3	1,2	3,9	0,07	0	0,41	0,94	0,38	3,6	99,71
II	Cy -20	57,3	4,0	3,89	0,86	0,16	13,3	6,9	1,6	1,5	0,21	0,7	<0,04	1,5	<0,04	3,2	99,52
II	Cy -44	73,0	1,7	1,4	0,7	0,04	9,5	2,1	2,3	1,9	0,1	0	0,61	0,38	0,25	6,0	100,5
I	Cy - 200	71,2	1,38	1,08	0,74	0,03	11,2	2,0	3,25	2,6	0,074	n/o	0,58	0,22	0,25	3,8	99,304
II	Cy - 202	54,5	4,3	3,36	0,91	0,16	16,7	5,59	1,7	2,9	0,302	n/o	0,76	1,42	0,31	3,9	99,402
I	Cy - 207	89,5	0,4	1,3	0,29	0,008	2,5	0,22	0,19	0,9	0,125	0,44	0,302	0,28	0,13	2,9	99,663

